Выведение практического сотрудничества на качественно новый уровень государств центрально-азиатского региона в укреплении концепции «зеленой экономики» в эпоху глобализации.....	1117
Парпиева Наргиза Тахировна	
Kimyo sanoati korxonalarida lean production konsepsiyasidan foydalanish istiqbollari	1122
Gulbayeva Feruza Islomovna	
Qimmatli qog'ozlar bozorida auditorlik xizmatlarining ahamiyati.....	1127
Maxmudov Saidjamol Kadirjanovich	
Tijorat banklari resurs bazasini mustahkamlash yo'llari	1131
Allaberganov Sirojali Saxatovich	
Теоретические основы формирования понятия «финансовая стабильность» Часть II	1143
Алиева Сусанна Сейрановна	
O'zbekiston moliya tizimini raqamlashtirishning rivojlanish tendensiyalari.....	1148
Tashmatova Rano Gaibovna, Qodirov Nurhayot Normuhammad o'g'li	
Theoretical basis of the use of modern information technologies in accounting	1154
Annayev Abdurasul Abdurashidovich, Tojiboyev Jasurbek Shavkat o'g'li, Rustamov Suxrob Asror o'g'li	
Moliyaviy bozorlar chayqalmoqda: investorlar uchun yangi signalmi?	1158
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li, Yaxshiboyev Jahongir Abdualimovich	
Yashil moliyalashtirish va esg samaradorligining iqtisodiyot barqarorligidagi o'rni.....	1166
Yusupov Sherzodbek Baxtiyor o'g'li, Atadjanov Kadambay Sapayevich, Madraimov Xabibulla Madaminovich	
Tijorat banklarida muammoli kreditlarni kamaytirish bo'yicha tizimlarni takomillashtirish yo'llari	1170
Bekmurodova Mahbuba Mahmudovna	
Maqola: Globalizatsiyada inson resurslarini boshqarishda raqamli transformatsiyaning rejasini tuzish	1177
Salimjonova Gulhayo Asliddin qizi, Ovxonov Iqboljon Abdunabiyevich, Nabiye Sherzodbek Nurmuhammad o'g'li	
Turizm sanoatida Internet-marketing vositalari va ulardan samarali foydalanish	1182
Babaev Jo'rabek	
Ishlab chiqarishni boshqarishda mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning ahamiyati	1190
Asqarova Lobarxon Usmanjanovna	
O'zbekistonda ichki turizm faoliyatini rivojlantirishda transport infratuzilmasini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy jihatlarini	1194
Turopov Maqsudjon	
Kichik biznes faoliyatini rivojlantirishda soliq siyosatini takomillashtirishning ahamiyati	1199
Abdurahmonov Abdumalik Abdug'ani o'g'li	
Madaniy-tomosha xizmatlarining tahlili va uni rivojlantirish yo'llari	1204
Annayev Abdurasul Abdurashidovich	
Цифровизация экономики и генезис стран мирового хозяйства	1211
Камилова Наргиза Абдукажоровна	
“Oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi” faoliyati	1216
Xushmurodov Baxtiyor Turg'un o'g'li	
Soliq stavkalarini tabaqalashtirish asosida soliq to'lovchilar iqtisodiy faoliyatini tartibga solish mexanizmlari.....	1220
Abduraimova Nigora Abdugapparovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tish va barqaror rivojlanishga ta'sir etuvchi omillar	1223
Xamdamov Shoh-Jahon Rahmat o'g'li	
Mintaqaning eksport salohiyati tahlili asosida istiqbolli y'nalishlarni aniqlash (Xorazm viloyati misolida).....	1229
Ibadullayev Ergash Bakturdiyevich	



Uy-joy kommunal xo'jaligini mintaqada innovatsion rivojlantirishni boshqaruvi	1235
Adilova Yulduz Shavkatovna	
Bank tizimi likvidligini ta'minlash vositalari va usullarini takomillashtirish	1239
Poyonov Bobir Bekmurod o'g'li	
Milliy brendlarni shakllantirish orqali tashqi bozorlarda raqobatbardoshlikni oshirish	1245
Muratbaeva Eleonora Muxamedjan qizi	
Charm mahsulotlaridan tayyorlangan bolalar transformatsion sumka ishlab chiqarish iqtisodiy samaradorligi	1250
Ismailov Nurulla Tuychibayevich	
O'zbekistonda qurilish materiallari ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati: iqtisodiy tahlil va islohotlar zarurati	1256
Raximov Ilyos Ikramovich	
Yoqilg'i-energetika kompleksida innovatsion salohiyatni oshirish strategiyasi	1262
Nabiyeva Saidaxon Abduvaxabovna	
Banklarda moliyaviy xavfsizlik kategoriyasining evolyusiyasi	1268
Qobilov Muxammad Ayubxon Yusufjon o'g'li	
Развитие системы бухгалтерского учёта и отчётности на современном этапе	1273
Мамажонов Акрамжон Тургунович, Юсупова Малика Ботиралиевна	
Практика банковского кредитования предпринимательских субъектов сферы услуг в германии	1279
Мукарова Сарвиноз Маликовна, Каримова Азиза Махомадризовна	
Статистический анализ теневой экономики в узбекистане	1283
Кошанов Абдимурат Азат ули, Абдиразакова Асемай Жандулла кизи	
The importance of using digital technologies in business	1288
Makhmudova Munisakhon Abbos qizi	
0,4 kv kuchlanishdan ta'minlanuvchi suv nasoslarini tarmoq faza kuchlanishi yo'qolishidan himoyalash	1292
Xalikova Xurshida Abdullayevna, Nurova Malika Abduzairovna, Mustayev Ruslan Aktamovich	
Tijorat banklarida korporativ boshqaruv tizimining samaradorligini oshirish	1297
Dexkonova Sayidaxon Nurmuxammatovna	
Ijtimoiy-iqtisodiyot va markaziy osiyo mamlakatlari ijtimoiy sohada	1302
Usmanxo'jayeva Surayyo Muxtarovna	
Aksiyalarni ommaviy joylashtirish amaliyotini tashkil etish va o'tkazish bosqichlari	1307
Raimov Farrux Avazjon o'g'li	
Approaches to effective management of tax liabilities through tax auditing	1311
Abdullayev Abror Bozarboevich	
Tijorat banklarida aktivlarni sekyuritizatsiyalash tizimini takomillashtirish	1316
Axmedov Akbarali Sultonmurodovich	
Tashqi va ichki omillar ta'sirini hisobga olgan holda korxona moliyaviy holati barqarorligining tahlili	1325
Eshkuvatov Azizjon Baxtiyorovich	
Tijorat banklari tomonidan ajratilayotgan kreditlarning iqtisodiyotni rivojlantirishdagi roli	1330
Masharipov Rasulbek Jo'rabekovich	
Sun'iy intellekt asosida bank tizimini modernizasiya qilish va samaradorligini oshirish	1333
Boykulov Baxriddin Karshievich	
Aksiyadorlik jamiyatlarini moliyalashtirish manbalaridan samarali foydalanish	1338
Arifjanova Yayraxon Usmonxo'jayevna	
Ipoteka obligatsiyalarining mamlakat iqtisodiyotining o'sishidagi ahamiyati hamda mazkur obligatsiyalar bilan bog'liq risklar	1343
Ibrohimov Yorqinjon To'liqin o'g'li	
Анализ спроса и потребительского поведения на продукцию, выращенную гидропонным методом	1349
Дурманов Акмал Шаймарданович	
Global moliyaviy inqirozlar sharoitida aholi daromadlarining barqarorligini ta'minlash strategiyalari	1355
Qurbanov Ulug'bek Erkinovich, Nutfullayev Shohrux Mexli o'g'li	



“O‘zbekistonning “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish strategiyasi: mavjud muammo va istiqbolli imkoniyatlar”	1359
Ismailov Dilshod Anvarjonovich, Akramova Aziza Abduvohidovna	
Aksiyadorlik jamiyatlarida davlat xaridlarini tashkil etish amaliyotini takomillashtirish.....	1366
Saidaxmedova Aida Mirzayevna	
O‘zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirish masalalari	1372
Abduraxmonova Ziyoda Abdullayevna	
Netto ish haqini hisoblashning innovatsion usullari.....	1378
Mirmahmudov Murod Ibratovich	
Xizmat ko‘rsatish sohasida tadbirkorlik: iqtisodiy va ijtimoiy istiqbollar	1383
Xaydarova Shoxista Davranovna	
Texnologiya fanida sun‘iy intellekt va kompyuter texnologiyalaridan foydalanish	1388
Ashurov Nazar Raxmatullaevich	
Korporativ xaridlarni amalga oshirishdagi byurokratik to‘siqlar va ularni bartaraf etish usullari	1391
Qurbanov Shohboz Lutfillayevich	
Yashil yondashuvlar asosida barqaror iqtisodiyotni rivojlantirishning nazariy asoslari.....	1396
Ubaydullaev No‘monjon Isroilovich	
Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini SWOT va pestel tahlil qilish orqali iqtisodiy bashoratlash.....	1401
Karimova Maftuna Nurdinovna	
O‘tkir revmatik isitmasi bor bolalarda kardiometriya ko‘rsatkichlarining statistik tahlili	1407
Muxamadiyeva Lola Atamuradovna	
Ways to develop digital economy and electronic government in UZBEKISTAN	1418
Nuriddinova Dilshodaxon Abdulla kizi	
O‘zbekistonda hayot sug‘urtasining joriy etilishi va unga ta’sir etuvchi demografik omillar ta’siri.....	1422
Mirzamahmudova Madina Odiljon qizi	
Global iqlim o‘zgarishining turizm sektoriga ta’siri: muvofiqlashtirish va barqarorlikka erishish strategiyalari	1428
Karimova Shaxnoza Uktamovna	
Prospects for the development of islamic microfinance services in uzbekistan.....	1433
Sadullaeva Gulnoza Usmanovna	
Global iqlim o‘zgarishi riski uning mamlakat iqtisodiyoti moliyaviy sektoriga ta’siri	1439
Baratov Sa’dulla Norjigit o‘g‘li, Jo‘rayev Behzod Nuraliyevich	
Перспективы унификации налогов на землю и имущество	1444
Акбарова Нилуфар Нейматжановна	
Banklarda xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) asosida hisobot tuzish tartibi	1449
Arziboyeva Ravzaxon Sattarovna	
Kichik biznes subyektlari iqtisodiy xavfsizligini ta’minlash mexanizmini takomillashtirish	1454
Akbarov Abdulhamid Akmal o‘g‘li	
O‘zbekiston Respublikasi hududlarida demografik jarayonlarning dinamikasi tahlili	1458
Xamitova Mavluda Sindarovna	
Ta’minot zanjirlarini boshqarishda big datadan foydalanishni afzalliklari	1463
Yuldashev Abduhakim Abdukarimovich, Quryazov Quryozbek Ergash o‘g‘li	
Yashil texnologiyalardan keng foydalanish – yashil investitsiyalarning poydevori.....	1467
Xursandov Komiljon Maxmatkulovich	
Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklarining strategik boshqaruv tizimini takomillashtirish yo‘llari.....	1470
Umurov Jasurbek Jamil o‘g‘li	
Digital neighbourhood contexts in youth employment and competency frameworks	1474
Gulsara Ostonaqulova	
Роль организации антимонопольной политики в национальной экономике в обеспечении экономической безопасности и конкурентоспособности.....	1482
Глазова Марина Викторовна	
Rivojlangan sug‘urta bozorlarida investitsiya faoliyati tahlili.....	1487
Suyunov Isomiddin Tilovkobilovich	



O'zbekiston respublikasida qurilish kompleksining hozirgi holati va asosiy rivojlanish tendensiyalari.....	1491
Muxibova Guli Yarkinovna	
Aholining turmush farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning roli	1496
Ostanova Nargiza Baratovna	
Tadbirkorlik faoliyatini boshqarishda rahbarlik uslubi: demokratik rahbarlar	1508
Amonov Mehridin Oromiddinovich	
Korxonlarni rivojlantirishda yashil iqtisodiyot mexanizmlarini joriy etish	1513
Yusupov Bekzod Ulugbekovich	
O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmi infratuzilmasini rivojlantirishni ko'p omilli ekonometrik modellashtirish asosida prognozlash	1517
Norchayev Asatullo Norbo'tayevich	
"Ijtimoiy himoya" kategoriyasiga qaratilgan nazariy qarashlar evolyusiyasi	1526
Bobonov N.H	
Majburiyatlar hisobini xalqaro standartlar asosida takomillashtirishning nazariy asoslari.....	1532
Ikromova Odinaxon	



MAJBURIYATLAR HISOBINI XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

Ikromova Odinaxon

Samarqand Iqtisodiyot va servis instituti
tayanch doktranti
ORCID: 0009-0003-2077-4169
ikromova.odina1999@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston buxgalteriya hisobi tizimida majburiyatlar hisobini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) asosida takomillashtirishning nazariy asoslari tahlil qilingan. Tadqiqotning asosiy maqsadi – moliyaviy hisobda majburiyatlar aks ettirilishining xalqaro amaliyotga muvofiq modelini ishlab chiqish va milliy standartlar bilan uyg'unlashtirish imkoniyatlarini aniqlashdir. Maqola doirasida taqqoslov metodologiyasidan foydalanilgan holda MHXS va milliy BHMS o'rtasidagi farqlar ko'rsatib berilgan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xalqaro standartlarga moslashuv O'zbekistonning investitsion jozibadorligini oshirish va "yashil hisob" mexanizmlarini joriy etishda muhim rol o'ynaydi. Xulosa sifatida, mavjud normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, xodimlar malakasini oshirish va elektron hisobot tizimlarini joriy etish asosiy vazifalar qatorida belgilangan.

Kalit so'zlar: xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS), majburiyatlar hisobi, BHMS, xalqaro integratsiya, xorijiy investitsiyalar, yashil hisob, buxgalteriya islohotlari.

Abstract: This study explores the theoretical foundations of improving liability accounting in Uzbekistan based on International Financial Reporting Standards (IFRS). The main objective is to develop an IFRS-compliant liability accounting model and identify opportunities for harmonization with national standards (GAAP Uzbekistan). A comparative methodology is employed to analyze discrepancies between IFRS and national accounting practices. The findings reveal that alignment with international standards can enhance Uzbekistan's investment climate and facilitate the implementation of "green accounting" principles. The conclusion emphasizes the need for regulatory reforms, staff capacity-building, and digital transformation of reporting systems.

Key words: International Financial Reporting Standards (IFRS), liability accounting, national GAAP, international integration, foreign investments, green accounting, accounting reform.

Аннотация: В статье исследуются теоретические основы совершенствования учета обязательств в Узбекистане на основе Международных стандартов финансовой отчетности (МСФО). Целью работы является разработка модели учета обязательств, соответствующей международной практике, и определение путей интеграции с национальными стандартами (НСБУ). Используются методы сравнительного анализа между МСФО и НСБУ. Результаты исследования показывают, что адаптация международных стандартов повышает инвестиционную привлекательность страны и способствует внедрению принципов «зеленого учета». В заключении предлагаются рекомендации по совершенствованию нормативной базы, повышению квалификации бухгалтеров и цифровизации отчетности.

Ключевые слова: Международные стандарты финансовой отчетности (МСФО), учет обязательств, НСБУ, международная интеграция, иностранные инвестиции, зеленый учет, бухгалтерская реформа.

KIRISH

Globallashuv jarayonining jadallashuvi sharoitida O'zbekiston Respublikasining jahon bozoriga integratsiyalashuvi yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Ayniqsa, bu jarayon buxgalteriya hisobining takomillashuvi va xalqaro standartlarga moslashtirilishi bilan yaqqol namoyon bo'lmoqda. Moliyaviy hisobotlarni Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) asosida yuritish bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimizda xorijiy investitsiyalarni jalb etish, hisobdorlik va shaffoflikni ta'minlash, boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. MHXSga o'tishning asosiy maqsadi – investitsiyalar uchun qulay muhit yaratish, boshqaruv



qarorlarining sifatini oshirish, kompaniyalarning rivojlanishi uchun imkoniyatlarni kengaytirish, tannarxni kamaytirish hamda korxonalar raqobatbardoshligi va iqtisodiy samaradorligini oshirishdan iborat.

Shu nuqtai nazardan, 2022–2026-yillarga mo'ljallangan "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"da "milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash" yo'nalishi doirasida investitsiya muhitini yanada yaxshilash, uning jozibadorligini oshirish va kelgusi besh yilda 120 milliard AQSh dollari, jumladan 70 milliard dollar xorijiy investitsiyalarni jalb etish bo'yicha aniq vazifalar belgilangan. Shuningdek, investitsiyalarning samarali yo'naltirilishi, "pastdan-yuqoriga" tamoyili asosida yangi tizim joriy etilishi ham strategik ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida qayd etilgan.

Moliyaviy hisobotlarning MHXSga muvofiqligini ta'minlashda majburiyatlar hisobi alohida ahamiyatga ega bo'lib, buxgalteriya hisobining tarkibiy elementi sifatida e'tiborga olinadi. Ayni paytda tashkilotlar tomonidan majburiyatlarni aniqlash, baholash, tasniflash va ularni tan olish jarayonida xalqaro standartlar bilan bog'liq muammolar mavjud. Bundan tashqari, korxonalar faoliyatida kreditorlik va debitorlik qarzlarini o'z vaqtida hisobga olish va to'liq aks ettirish zarurati oshib bormoqda. Shu sababli baholanadigan majburiyatlar, shartli aktivlar hamda shartli majburiyatlarni hisobga olish va audit qilish metodologiyasini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

MAZVUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

MHXSda majburiyat quyidagicha ta'riflanadi: "Majburiyat – bu o'tgan davrdagi hodisalardan kelib chiqadigan kompaniyaning joriy qarzdorligidir, u iqtisodiy nafni o'zida mujassam etgan kompaniya resurslarining chiqib ketishiga olib keladi".

Iqtisodchi olim S.N. Tashnazarov (2023) majburiyatlarni quyidagicha izohlaydi: "Majburiyatlar – bu tashkilotning o'tgan hodisalar natijasida yuzaga kelgan iqtisodiy resurslarini uzatish bo'yicha huquqiy majburiyatlar bo'lib, uning so'ndirilishi tashkilotda muqarrar iqtisodiy nafni o'zida mujassam etgan iqtisodiy resurslarning chiqib ketishiga yoki yangi majburiyatlarning yuzaga kelishiga olib keladi".

R.H. Hermanson (1995) va mualliflar jamoasi majburiyatlarga quyidagicha ta'rif beradi: "Majburiyatlar – bu o'tgan operatsiyalar natijasi o'laroq yuzaga keladi va kelgusi davrlarda pul to'lash, xizmat ko'rsatish yoki tovar yetkazib berish bo'yicha javobgarlikdir". Ular buxgalteriya balansida majburiyatlar joriy va uzoq muddatli turlarga bo'linishini ta'kidlaydilar.

Ko'pgina iqtisodchi olimlar majburiyatlarni joriy va uzoq muddatli majburiyatlarga ajratadi. Jumladan, iqtisodiy adabiyotlarda uzoq muddatli majburiyatlar – bu keyingi biznes sikli yoki hisobot yilida (qaysi biri uzoqroq bo'lsa) joriy aktivlar bilan qoplanishini talab qilmaydigan majburiyatlar sifatida izohlanadi. Joriy majburiyatlar esa korxonaning operatsion sikli davomida yoki balans sanasidan boshlab 12 oy ichida to'lanishi lozim bo'lgan majburiyatlardir. Ba'zi manbalarda bular qisqa muddatli majburiyatlar deb ham yuritiladi.

Masalan, A. Ibragimov, I. Ochilov, I. Qo'ziev va N. Rizaev (2008) o'z tadqiqotlarida qisqa muddatli majburiyatlar tarkibiga joriy aktivlar bilan qayta moliyalashtirilishi lozim bo'lgan majburiyatlar kirishini ta'kidlaydilar.

J. Uilyams (2012) esa "baholangan majburiyatlar"ning buxgalteriya hisobida paydo bo'lishini muhim rivojlanish sifatida ko'rsatadi. Unga ko'ra, bu jarayon "Big bath" deb nomlanuvchi amaliyotlarni – ya'ni daromaddan bir martalik xarajat chiqarish orqali aktivlarni sun'iy kamaytirish holatlarini tartibga solishga xizmat qiladi. Bu esa kelgusida xarajatlar miqdorini kamaytirishga yordam beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda majburiyatlar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida takomillashtirish masalalari yoritildi. Xususan, xalqaro standartlardan foydalanishning ahamiyati va zarurligi bo'yicha xorijiy hamda mahalliy olimlarning ilmiy ishlari tahlil qilindi. Tadqiqot davomida kuzatuv, taqqoslash va tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, mavzuga oid chizmalar, rasmiy ma'lumotlar va statistik jadvallar asosida muammolar tahlil qilinib, amaldagi holatga baho berildi. Sohada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar va ularni yanada takomillashtirish yo'nalishlariga doir taklif va xulosalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR


Mamlakatda iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash, xorijiy investitsiyalarni keng miqyosda jalb etish hamda sun'iy intellekt (AI) modellari uchun yuqori sifatli ma'lumotlar bazasini yaratish maqsadida, 2024-yil davomida buxgalteriya hisobi va auditorlik faoliyati sohasida muhim ishlar amalga oshirildi. Bunda raqamli biznes hisobotlarini taqdim etishning global standartlariga moslashish asosiy yo'nalishlardan biri bo'ldi.

Shuningdek, bundan 25 yil avval ishlab chiqilgan buxgalteriya hisobi milliy standartlarining (BHMS) amaldagi tahriri dastlab xorijiy tilda tayyorlangan va tasdiqlangan edi. Bugungi kunga kelib, ushbu standartlardagi normalarni



amaldagi qonunchilik hujjatlaridagi o'zgarishlar hamda xalqaro standartlar talablariga muvofiqlashtirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Mazkur ehtiyoj asosida 2024-yil davomida 25 ta buxgalteriya hisobi milliy standarti va hisobga oid normativ-huquqiy hujjatlar davlat tili talablari asosida to'liq qayta ko'rib chiqildi. Birlashtirish va tizimlashtirish yo'li bilan ular yangi ko'rinishda quyidagicha shakllantirildi: 15 ta BHMS, 1 ta Konseptual asos, 4 ta Nizom – jami 20 ta buxgalteriya hisobiga oid hujjat ishlab chiqildi va ular davlat ro'yxatidan o'tkazildi (1-rasm).



1-rasm. Buxgalteriya sohasida 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar va erishilgan natijalar¹.

Yangi tahrirda ishlab chiqilgan buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS) xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) bilan uyg'unlashtirilgan holda qayta ishlab chiqildi. Quyidagi misollar ushbu uyg'unlikni yaqqol ko'rsatadi:

- 1-sonli BHMS "Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati" MHXSning 1-sonli "Moliyaviy hisobotni taqdim etish" standarti bilan uyg'unlashtirildi.
- 5-sonli BHMS "Asosiy vositalar" MHXSning 16-son "Asosiy vositalar" standarti asosida ishlab chiqildi.
- 22-sonli BHMS "Chet el valutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning hisobi" esa 21-sonli MHXS "Valuta kurslaridagi o'zgarishlarning ta'sirlari" standarti bilan muvofiqlashtirildi.
- 9-sonli BHMS "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot" MHXSning 7-sonli "Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot"iga moslashtirildi.

Ushbu o'zgarishlar O'zbekistonda buxgalteriya hisobotining xalqaro standartlar talablariga yaqinlashishiga xizmat qilmoqda va xorijiy investorlar uchun tushunarli, shaffof va taqqoslanadigan moliyaviy hisobotlar taqdim etish imkoniyatini oshirmoqda.

1-jadval. 4 ta BHMS Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) uyg'unlashtirildi.

Yangi tahrirda ishlab chiqilgan BHMS	MHXSga uyg'unlashtirilgan standartlar
1-sonli BHMS "Moliyaviy hisobotni taqdim etish va hisob siyosati"	1-son "Moliyaviy hisobotni taqdim etish"
5-sonli MHMS "Asosiy vositalar"	16-son "Asosiy vositalar"
22-sonli BHMS "Chet el valutasida ifodalangan aktivlar va majburiyatlarning hisobi"	21-son "Valuta kurslaridagi o'zgarishlarning ta'sirlari"
9-son BHMS "Pul oqimlari to'g'risidagi hisobot"	7-son "Pul mablag'lari harakati to'g'risidagi hisobot"

"O'zbekiston Respublikasining "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonunida "aktivlar, majburiyatlar, xususi kapital, zahiralar, daromadlar, xarajatlar, foyda, zararlar va ularning harakati bilan bog'liq xo'jalik operatsiyalari buxgalteriya hisobining obyektlaridir" deb ta'kidlangan. Mazkur yondashuvdan ko'rinib turibdiki, majburiyatlar buxgalteriya hisobining asosiy obyektlaridan biri hisoblanadi.

1 Manba: www.imv.uz sayti



A. To'ychievning fikricha, iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida majburiyatlar miqdorini doimiy ravishda nazorat qilib borish muhim ahamiyatga ega. Bu esa o'z navbatida majburiyatlar hisobini va ular asosidagi hisobotlarni takomillashtirishni talab etadi.

Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS) konseptual asoslarida majburiyatlarning asosiy tavsifi sifatida xo'jalik yurituvchi subyektlarning boshqa yuridik yoki jismoniy shaxslar oldida joriy javobgarlikka ega bo'lishi, jumladan, olingan tovar-moddiy zahiralalar yoki xizmatlar uchun to'lov majburiyatlari keltirib o'tiladi.

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlarida (MHXS) majburiyat quyidagicha ta'riflanadi: "Majburiyat – bu o'tgan davrdagi hodisalardan kelib chiqadigan kompaniyaning joriy qarzdorligidir, qaysiki uning bartaraf etilishi iqtisodiy nafni o'zida mujassam etgan kompaniya resurslarining chiqib ketishiga olib keladi".

Amaliyotda ma'lumki, debitorlik qarzlar buxgalteriya balansining aktiv qismida, kreditorlik qarzlar esa passiv qismida aks ettiriladi. Shu sababli, ko'p hollarda "majburiyatlar" tushunchasi faqat kreditorlik qarzlar bilan tenglashtirib tushuniladi. Biroq majburiyatlarning o'ziga xos xususiyati shundaki, ular nafaqat mavjud kreditorlik qarzlarini, balki baholanuvchi va shartli majburiyatlarni ham qamrab oladi. Xalqaro standartlarga ko'ra, majburiyatlar bir nechta turlarga bo'linadi (2-jadval).

2-jadval. Majburiyatlarning tasnifi².

MAJBURIYATLAR	
Asosiy faoliyat bilan bog'liq kreditorlik qarzlar	Olingan va hisobvara-faktura taqdim etilgan yoki mol yetkazib beruvchi bilan rasmiy ravishda kelishilgan mahsulot, ish va xizmatlarning haqini to'lash yuzasidan kelib chiquvchi majburiyat
Hisoblangan ajratmalar	Olingan, ammo hisobvara-faktura taqdim etilgan yoki mol yetkazib beruvchi bilan rasmiy ravishda kelishilmagan mahsulot, ish va xizmatlarning haqini to'lash yuzasidan kelib chiquvchi majburiyat
Olingan kreditlar va qarzlar	Xo'jalik yurituvchi subyektlarning kredit muassasalaridan oladigan kreditlari, boshqa xo'jalik yurituvchi subyektdan oladigan qarzlari
Baholanuvchi majburiyatlar	Muddati tugamagunga qadar aniq bo'lmagan qarzdorlik summasi
Shartli majburiyatlar	Kelgusida zarar yoki qarzdorlikni keltirib chiqaruvchi voqea va hodisalar ta'sirida vujudga keladigan majburiyatlardir

Buxgalteriya hisobi tizimini xalqaro standartlar asosida yanada takomillashtirish maqsadida qator chora-tadbirlar izchil ravishda amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan 2025-yilda amalga oshiriladigan ustuvor vazifalar sifatida quyidagilar belgilab olindi:

Xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) asosida barqarorlik standartlarini joriy etish;

"Yashil hisob" amaliyotini rivojlantirish va moliyaviy hisobotlarda ekologik tarkibni mustahkamlash.

Xalqaro amaliyotda "yashil hisob" tushunchasi keng qamrovli mazmunga ega bo'lib, quyidagi asosiy yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

Tashkilotning buxgalteriya (moliyaviy) hisob varaqlari atrof-muhitga munosabati va ekologik xavflar, shuningdek tabiatni muhofaza qilish faoliyati bilan bog'liq xarajatlar hamda majburiyatlarning korxona moliyaviy holatiga ta'sirini aks ettirishi lozim;

Investorlar ekologik tadbirlar va tabiatni muhofaza qilish bilan bog'liq xarajatlar bo'yicha ishonchli va to'liq ma'lumotga ega bo'lishi kerak, bu esa investitsion qarorlarni qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi;

Menejerlar mahsulotni baholashda va investitsiya qarorlarini qabul qilishda ekologik xarajatlarni aniq hisoblab, ularni tahlil asosida taqsimlashi zarur;

Tashkilotlar o'z mahsulot va xizmatlarining ekologik xavfsizlik talablariga javob berishini namoyish qila olsa, raqobatbardoshlikda ustunlikka ega bo'ladi.

Ushbu yondashuv "yashil iqtisodiyot" tamoyillariga muvofiq hisob yuritish va hisobot taqdim etishda innovatsion mezonlarni shakllantirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Bugungi kunda dolzarb islohotlardan biri – bu moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini va ilg'or xorijiy tajribalarni, sohaga oid jahon adabiyotlari hamda hujjatlarini chuqur o'rganish va ularni mamlakatimiz iqtisodiyotining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda milliy amaliyotga joriy etishdan iborat. Shu bilan birga, iqtisodiyotni raqamlashtirish jarayoni ham muhim islohot yo'nalishlaridan biri sanaladi. Hozirgi globallashuv sharoitida raqamli iqtisodiyotdan foydalanmasdan turib jahon mamlakatlari bilan samarali

2 Manba: Muqumov Z.A. va G'aniyev S.V. (2024)



raqobatlashish imkonsizdir. Raqamli iqtisodiyot, o'z navbatida, xalqaro iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash, axborot shaffofligini ta'minlash va boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Buxgalteriya hisobi milliy standartlari (BHMS) va xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) o'rtasidagi yaqinlashuv sharoitida majburiyatlarning konsepsiyasi, tasnifi, baholanishi va hisobi bo'yicha nazariy hamda amaliy masalalarning dolzarbligi ortib bormoqda. Bu boradagi metodologik asoslarning hali yetarli darajada ishlab chiqilmaganligi mavzuning yanada ahamiyatli ekanligini ko'rsatadi.

Shu sababli, bugungi kunda buxgalteriya hisobiga qo'yilayotgan yangi talablarni qamrab oluvchi, sifat jihatidan yangicha yondashuv asosida ishlab chiqilgan qonuniy asosni yaratish zarurati mavjud. So'nggi yillarda sohaga doir bir qator yangi talablar shakllanib ulgurgan bo'lib, ular qonunchilikka sistematik tarzda integratsiyalashni taqozo etmoqda.

Xulosa o'rinda ta'kidlash joizki, xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyati davomida majburiyatlar tushunchasi moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida qo'llanilgan ta'rif bilan taqqoslanganda, muayyan farqlar mavjudligi aniqlanmoqda. MHXS asosida majburiyatlarni hisobga olishda buxgalteriya hisobining to'liq oshkor qilish, moddiylik va ehtiyotkorlik tamoyillari asosida hisobotlarda aks ettirilishi muhim metodik asos sifatida e'tirof etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi PQ-4611-sonli "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.
2. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi. PF-60, 28.01.2022.
3. S.N. Tashnazarov. Moliyaviy buxgalteriya hisobi. Darslik. – Samarqand, 2023. 237-bet.
4. Ochilov F.Sh. Majburiyatlar hisobi va auditini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, TMI, 2022. – 56 bet.
5. S.N. Tashnazarov. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) avtoreferati. – Toshkent, 2019. 74-bet.
6. Williams, J. (1999). IAS 37, Provisions, Contingent Liabilities and Contingent Assets. Archived 2012-04-15 at the Wayback Machine. Retrieved on April 25, 2012.
7. A.J. Tuychiev. Majburiyatlar buxgalteriya hisobi va tahlilining nazariy-metodologik muammolari. Dissertatsiya. I.f.d. – Toshkent, 2011.
8. Muqumov Z.A., G'aniyev S.V. Majburiyatlarning iqtisodiy mazmuni va buxgalteriya hisobini tashkil qilishning nazariy asoslari. Xalqaro ilmiy jurnal «Научный Фокус». №15 (100), 1-qism, iyul, 2024.
9. Ibragimov A., Ochilov I., Qo'ziev I., Rizaev N. Moliyaviy va boshqaruv hisobi. O'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-Moliya", 2008. 444-bet.
10. Hermanson, R.H., Edwards, J.D., Maher, M.W. Accounting: A Business Perspective. 6-nashr, Irwin. – USA, 1995. 339–344-betlar.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 4

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
